



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



30 Sentyabr
№32

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 32-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
32-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
32-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-25**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 32-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Jumaniyazova Nodira Khudayberganovna	
BIOLOGIYANI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISHDA TEKNOLOGIYALARNING ROLI	7
2. Supayeva Aziza Nuralli qizi	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TEST TOPSHIRIQLARI ORQALI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISH.....	9



ГЕОГРАФИЯ

BIOLOGIYANI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISHDA TEKNOLOGIYALARNING ROLI

Jumaniyazova Nodira Khudayberganovna;

Toshkent viloyati, Piskent tumani 22-maktab

Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar olib borishda texnologiyalarning roli, ahamiyati tahlil etilib. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda Biologiya fani darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari, ommaviy tadbirlar o'tkazish metodikasi, bo'lajak biologiya o'qituvchilariga tirik tabiat burchaklarini shakllantirish, biologiya fanlarini o'qitishda nazariy va amaliy mashg'ulotlarning birligini amalga oshirish yo'llari va talabalarning o'z ustida mustaqil ishlashlari uchun topshiriqlar, savollar, an'anaviy ta'lim texnologiyasini takomillashtirish muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: biologiya, amaliy mashg'ulot, texnologiya, jadval, natural obyektlar, diafilm, kinofilm, biologik ta'lim

Jamiyatimizda yosh avlodga e'tibor yanada oshmoqda, ularning ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etilib kelimoqda. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil har tomonlama yetuk insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning farmoni, asar va nutqlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimining qator hujjatlari mazmuni bu borada amalga oshirish jarayonida o'qituvchi kadrlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda biologiya fani darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari, ommaviy tadbirlar o'tkazish metodikasi, bo'lajak biologiya o'qituvchilariga tirik tabiat burchaklarini shakllantirish, biologiya fanlarini o'qitishda nazariy va amaliy mashg'ulotlarning birligini amalga oshirish yo'llari va talabalarning o'z ustida mustaqil ishlashlari uchun topshiriqlar, savollar, an'anaviy ta'lim texnologiyasini takomillashtirish bugungi davr talabi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jumladan, biologik ta'lim mazmunining ikkinchi tarkibiy qismini faoliyat usullari, ya'ni ko'nikma va malakalar tashkil etadi. Ko'nikma biror faoliyatni o'zlashtirilgan usuli, malaka esa, mazkur ko'nikmaning avtomatlashgan ko'rinishi sanaladi.

Binobarin, biologiya o'qituvchisi o'quv dasturidan o'rin olgan biologik ko'nikma va malakalarni aniq bilishi, o'quvchilarda tarkib toptirish bosqichlarini chuqur anglagan bo'lishi kerak.

Biologiya fani tiriklik haqidagi fandir. Ushbu fanni o'qitishda amaliy mashg'ulotlar olib borishda texnologiyalarning roli o'ziga xosdir. Shu yo'sinda ularni amaliy darsda to'g'ri qo'llay olish samarali natijalarni beradi.

Biolog K.Kubakova ta'kidlashicha, "O'quvchilar biologiya fanini o'rganar ekan, tirik tabiat burchagidagi o'simliklar va hayvonlar ustida kuzatishlar o'tkazib, tajribalar olib boradilar. Uzoq muddatda olib borilgan kuzatish va tajribalar o'quvchilarda qisman tadqiqot xarakterdagi izlanishlar olib borish, muayyan ko'nikmalarni egallash, bilimlarni amaliyotga qo'llashga zamin tayyorlaydi."

Biologiyani o'qitishda amaliy mashg'ulotlar olib borishda texnologiyalar fan mavzusiga mos tarzda bo'lishi, bilimlarni o'quvchilar puxta o'zlashtirishi uchun har bir mavzu o'tilayotganda o'qituvchi jadval yoki natural obyektlar, diafilm, kinofilmlarni visual tarzda ko'rsatish orqali uning



xotirasi uchun tayyor bilim bermasdan, balki o'quv materialini qismlarga (bloklarga) ajratgan holda ularning bilish faoliyatini aktivlashtirishi, mustaqilligini rivojlantirishida asos bo'lish xizmat qiladi.

Shuningdek texnologiyalarni qo'llashda muammoli ta'limdan foydalanish, dialog usulda dars o'tish, ma'ruza o'qish, doskadan keng foydalanish, ya'ni ota, ona va duragaylar turli bo'g'inlarining genotipini va fenotipini yozish, mono -, di - , poliduragaylardan gametalar olish, duragaylar orasidagi xilma-xillikni doskada analiz qilish yoki genlarning o'zaro ta'sir mexanizmini yozib tushuntirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi dars o'tish, ma'ruza o'qish jarayonida albatta o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishi, ya'ni o'rganilayotgan materialni analiz, sintez qilishga, taqqoslashga, umumlashtirishga, induktiv yoki deduktiv usulda xulosa chiqarishga o'rgata borishi lozim. Fanga oid chet el adabiyotlarini tahlil etib yangidan yangi tadqiqot va tajriba ishlari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishi va fan haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Tajribadan ma'lumki, puxta chuqur bilim berish uchun butun mavzu yoki uning ma'lum qismi tushuntirib bo'lingandan keyin, o'zlashtirilgan bilim to'g'riligini tasdiqlash maqsadida har hil ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Odatda, biologiya, zoologiya, genetikadan masala yechish, muammolarni xal etish yoki mashq bajarishdan oldin o'qituvchi ularni qanday yechish kerakligini tushuntiradi. Masalalar turli xil tuzilgan bo'lib, ular qanday tuzilganligidan qat'iy nazar, o'quvchilar ularning shartini, so'ngra mazmuni va maqsadini bilib olishlari kerak. Shundan keyin nazariy bilimlarga suyanagan holda ularni yechishga kirishish zarur.

Masala yechish uchun o'quvchilar, fanga oid belgilarni, qoidalarni va aniq ma'lumotlarni yahshi o'zlashtirgan bo'lishlari shart. Masala yechishda o'quvchilar, ko'pincha masalalar to'plami yoki masalalar yozilgan kartochkalardan foydalanadilar. Har bir o'quvchi berilgan masala, mashqni mustaqil ravishda yechishi talab etiladi.

Xulosa qilar ekanman, biologiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar olib borishda texnologiyalardan foydalanish, o'quvchining mustaqillik va faollik xususiyatlarini tadqiq etishda, chuqur va mustahkam bilim olishiga, mantiqiy fikr yuritishiga, ijodiy izlanishga, o'z-o'zini baholashga undaydigan vosita, usul bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Tolipova J.O., G'ofirov A.T. Biologiyani o'qitish metodikasi. - T.: Sharq. 2004,231-b.
2. G'ofirov A.T., Habirova S.K. Biologiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar. - T.: "O'qituvchi", 1978.
3. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. - T.: "O'qituvchi", 2002.
4. Kubakova K. Biologiya o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlar olib boorish texnologiyasi. Toshkent.2018



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TEST TOPSHIRIQLARI ORQALI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISH.

Supayeva Aziza Nuralli qizi;

Toshkent shahar, Yunusobod tumani
86-maktab biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda test topshiriqlari orqali kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish muhokama etilib, test topshiriqlarining fandagi ahamiyati, olimlar tomonidan o'rganilganlik darajasi va testlarning tasnifi misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: biologiya, test topshiriqlari, kompetensiyaviy yondashuv, tanib olish testi, farqlash testi, qiyoslash testi, bir necha variantli test, ma'lumotni eslash testi, to'ldirish testi, konstruktiv test

Bizga ma'lumki, Biologiya fani tirik tabiat, hayot va u bilan bog'liq masalalar tadqiqotidir. Ushbu fan empirik fanning jonli organizmlarning tuzilishi, funksiyalari, o'zgarishi, kelib chiqishi, evolyutsiyasi va o'lishini o'rganuvchi sohadir. Fanda turli organizmlar saralanadi, ularning ishlashi, turlarning paydo bo'lishi, ularning o'zaro va atrof-muhit bilan munosabatlari tasvirlanadi. Biologiya zoologiya, fiziologiya, botanika, kabi turli sohalarga bo'linadi. Biologiya tirik tabiat to'g'risidagi bilimlar tizimini birlashtiruvchi fan sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kundagi o'rganilgan bilimlarni tahlil etar ekanmiz, fanda ilgari o'rganilgan dalillar tarixiylik nuqtai nazaridan ma'lum tizimlarga keltiriladi va ularning yig'indisi organik olamning asosiy qonuniyatlarini aniqlashga imkon yaratadi.

Biologiya fanini o'qitishda test topshiriqlari orqali kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biologiya fanida test topshiriqlari orqali kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish deganda o'quvchilarni ta'lim muassasida egallagan bilimlari orqali kundalik hayotda duch kelinadigan tanish yoki notanish vaziyatlarda foydalanishga test topshiriqlari asosida baholab, o'rgatish orqali rivojlantirishdir.

Talaba yoki o'quvchi, o'rganuvchini egallagan bilim- ko'nikmalari va salohiyatini hozirda turli usullar, metodlar orqali baholash mumkin. Biologiya fanida test topshiriqlari orqali bilimni baholash, o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish o'qituvchiga o'qitish uslubini tanlashda yordam berishdan, egallagan bilimni tekshirishdan iboratdir.

Test topshiriqlari – ta'lim natijalarini xolisona nazorat qilishning didaktik va texnologik vositalaridan hisoblanadi.

Hozirda bilimlarni baholashning turli usullarini tahlil etar ekanmiz, o'rganishlardan ko'rinib turibdiki testlarni guruhlariga ajratishga ham urinib ko'rilgan. Ch.Grin (1926) o'zining «Test novogo tipa» (Yangi turdagi test) nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko'rilgan testlarning afzalliklari va afzalsizliklarini tahlil qilib quyidagi tavsiyalarni bergan:

- test topshiriqlari uchun mo'ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;

- mazkur material uchun test topshiriqlarining eng maqbul shaklini tajriba yo'li bilan aniqlash;

- o'rganuvchi o'quvchi yoki talabaning test sinovlari vaqtida javob berishlari o'rtacha tezligi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;

- test sinovlardagi fikrlarni bayon qilinish tilining to'g'riligini va mantiqqa muvofiqligini tekshirish;

- topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to'g'ri va noto'g'ri javoblarning doim bir navbatda almashinishiga yo'l qo'ymaslik.

Testlarning talaba yoki o'quvchilar o'zlashtirishi darajasi bo'yicha tasnifi quyidagicha bosqichlarga bo'linadi:

1.Tanib olish testlari - "ha" yoki "yo'q, "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb javob beriladigan savoldan iborat bo'ladi. Biologiya fanidan test topshirig'iga javob berayotganda albatta o'quvchi yoki talaba mavzu haqida bilishi yoki xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim bo'lgan obyekt haqida so'raladi.



7-sinf "Biologiya" darsligining mavzuga test topshiriqlari quyidagicha berilgan: Hayvonlar bilan o'simliklar o'rtasida o'xshashlik bormi?


2. Farqlash testlari - bir yoki bir necha to'g'ri javobga ega bo'lgan testlar.

Masalan: Hayvonlar nomi va ularga mos keladigan xususiyatlarni juftlab yozing.


a) leyshmaniya; 1) qon paraziti; b) volvoks; 2) tanasi duksimon; d) triđanosoma; 3) terida yara paydo qiladi; e) evglena. 4) koloniya bo'lib yashaydi.

3. Qiyoslash testlari - o'rganilgan obyektlarda umumiylik yoki farqlarni topish so'raladi, bunda qiyoslanayotgan xususiyatlar yoki parametrlar topshiriq shartida berilgan bo'ladi. Masalan: Hayvon hujayralari va o'simlik hujayralarini qiyoslab toping.

a)



b)



4. Bir necha variantli test-topshiriqlar - topshiriq sharti va barcha kerakli boshlang'ich ma'lumotlar beriladi, javoblar variantlari keltiriladi.

O'quvchi berilgan topshiriq yechimini va to'g'ri javob qaysi ekanligini ko'rsatishi kerak. Masalan: Tuzilishi va bajaradigan vazifasi o'xshash bo'lgan hujayralar:

a) organlarni; b) to'qimalarni; d) organlar sistemasini hosil qiladi.

Ikkinchi bosqich testlari: 1. Ma'lumotni eslash testlari test savoli beriladi, javob variantlari berilmaydi. O'quvchi javob uchun kerakli ma'lumotlarni eslash asosida to'g'ri javobni topishi kerak.

2. To'ldirish testlari -topshiriqda har xil shakldagi ma'lumot – matn, formula (tenglama), chizma yoki grafik beriladi va o'quvchi tushirib qoldirilgan ma'lumotni to'ldirishi kerak. 3. Konstruktiv testlar o'quvchi javobni topish uchun, masalan, formulani yozishi, teoremani isbotlashi yoki grafikni chizib berishi lozim.

Uchinchi bosqich testlar 1. Ijodiy qobiliyat testlari o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni yangi sharoitlarda, amaliyotda ishlatish so'raladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. A.Q.Niyozov. Biologiya fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalar.2017.

2. O.Mavlonov.7 sinf.Biologiya.2017.

3. Danilchenko O.N., R.P. Romanov"Biologiya fanidan testlarni ishlab chiqish metodikasi".2018.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 32-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000